

MUSIQA O'QITUVCHISI VA UNING PEDAGOGIK JAMOADAGI MAVQEI

Andijon davlat universiteti

Sport va san'at fakulteti

Musiqasana'ati kafedrası

Vokal ijrochiligi yo'nalishi o'qituvchisi

Mo'ydinov Jahongir Qahramanjanovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqasana'at o'qituvchisining zamonaviy ta'lim tizimidagi kasbiy faoliyati, pedagogik jamoadagi ijtimoiy-pedagogik mavqei hamda ta'lim jarayonidagi funksional vazifalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, musiqasana'at o'qituvchisining o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, estetik va badiiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni, pedagogik hamkorlikni tashkil etishdagi kompetensiyalari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida faoliyat yuritish masalalari yoritilgan. Maqolada pedagogik jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, o'qituvchilar o'rtasida samarali kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda musiqasana'at o'qituvchisining kasbiy mahorati muhim omil sifatida asoslab berilgan. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения рассматриваются профессиональная деятельность учителя музыки в современной системе образования, его социально-педагогический статус в педагогическом коллективе, а также функциональные задачи в образовательном процессе. Особое внимание уделяется роли учителя музыки в духовно-нравственном, эстетическом и художественном развитии учащихся, формированию педагогического сотрудничества и использованию инновационных педагогических технологий. В статье анализируется значение профессиональной компетентности учителя музыки в создании благоприятного психологического климата в педагогическом коллективе, развитии эффективных коммуникативных отношений между педагогами, а также в повышении качества и эффективности образования. В ходе исследования использованы методы педагогического наблюдения, анализа и обобщения.

Annotation: This article scientifically and theoretically analyzes the professional activity of a music teacher in the modern education system, their socio-pedagogical status within the pedagogical community, and their functional responsibilities in the educational process. Particular attention is given to the role of music teachers in the spiritual, moral, aesthetic, and artistic development of students, as well as their competencies in organizing pedagogical cooperation and implementing innovative educational technologies. The article also examines the importance of the

professional competence of music teachers in creating a positive psychological environment within the teaching staff, developing effective communicative relationships among educators, and improving the quality and effectiveness of education. The research is based on methods such as pedagogical observation, analysis, and generalization.

Kalit soʻzla: musiqa oʻqituvchisi, pedagogik jamoa, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, estetik tarbiya, maʼnaviy-axloqiy tarbiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, taʼlim sifati, kommunikativ munosabatlar, pedagogik hamkorlik.

Ключевые слова: учитель музыки, педагогический коллектив, педагогическое мастерство, профессиональная компетентность, эстетическое воспитание, духовно-нравственное воспитание, инновационные педагогические технологии, качество образования, коммуникативные отношения, педагогическое сотрудничество.

Keywords: music teacher, pedagogical community, pedagogical mastery, professional competence, aesthetic education, spiritual and moral education, innovative pedagogical technologies, quality of education, communicative relations, pedagogical cooperation.

Har qanday fan tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining obyektiv qonunlari toʻgʻrisidagi bilimlarining yakunidan, jamalanishidan, ishonarli va umumlashgan bilimmla tizimidan iborat boʻladi. Tarbiya, tarbiya va oʻqitish fan sifatidagi pedagogikaning asosiy tushunchalaridir.

“Tarbiya ijtimoiy munosabatning shunday bir turiki, unda shaxsni yoʻnaltirgan holda shakllantirish maqsadida bir xil toifadagi kishilar boshqa birovlariga taʼsir oʻtkazadi.

Musiqiy tarbiya metodikasi fanlari tizimiga kirib, unda alohida oʻrin egallaydi. Maʼnaviy tarbiya masalalari hozirgi zamon pedagogikasida tarbiyaning umumiy muammolari bilan bogʻliq holda qaraladi.”

Oʻquvchilarni estetik ruxda tarbiyalashda, ularning badiiy didini oʻstirishda adabiyot va sanʼatning roli nioyatda katta. Chunki bolalarda axloq meyorlarini shakllantirishda, hayotga faol munosabatda boʻlish kabi xususiyatlarni kuchaytirishda musiqa sanʼatining imkoniyatlari juda keng. Sanʼat oʻquvchilarda yuksak insoniylik tuygʻularini ortirishi bilan birga, ularning maʼnaviy yuksalishiga hamsamarali taʼsir etadi.

Hozirgi zamon darsi musiqaviy tarbiya va taʼlimning oʻziga xos vazifalari bilan bir qatorda oʻz oldiga quyidagi vazifalarni ham qoʻymoʻgʻi kerak.

Maktabda zamonaviy tarbiya tizimi koʻpgina elementlardan tashkil topadi, bular: musiqa darsi, musiqadan sinfdan va maktabdan tashqari musiqaviy tarbiya va xor studiyalari hamda toʻgaraklari, vokal va cholgʻu ansambllari, musiqa maktablari

va hokazo. Bu tizimda ommaviy axborot tizimi juda katta o'rin egallaydi. Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vositalarning hammasi ma'naviy – estetik muhitni tashkil etadiki, bu muhitda o'quvchilarning musiqa sohasidagi

qiziqish va ehtiyojlari vujudga keladi. Maktabda musiqa darsi estetik tarbiya tizimining bir qismi bo'lib, u ko'p jihatdan maktab o'quvchisining ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Ma'naviy – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va boyitish, musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchining badiiy havaskorligi puxta o'ylangan va izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak.

“Dars maktabdagi o'quv ishining tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida o'quvchilarning doimiy guruhi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoa bilihs faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga muvofiq o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodda foydalaniladi.”

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'limning maqsadi — ijodkor, ma'naviyatga boy shaxsni shakllantirish ekanligi belgilab berildi. Shu bilan birga, «Musiqa san'ati va madaniyati» o'quv fanining asosiy maqsadi o'quvchilarda hayot va san'atning go'zalligiga qiziqish uyg'otish, milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ijodiy xayol va tasavvurini rivojlantirish deb hisoblanadi.

Uchinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra, diqqat-e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, ovoz apparatlari shakllangan, nutqi ravon, vokal-xor malakalari va musiqa haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

O'quvchilar o'quv jarayonida musiqaning hayotiyligi, mazmuni va janrlari, tuzilishi va shakli, uning boshqa san'at turlari bilan aloqasi haqidagi bilimlarni, notaga qarab kuylash, ikki ovozda kuylashning boshlang'ich malakalarini egallaydilar. Musiqa asarlarining xarakteri, sur'ati, mazmuni va ifoda vositalarini aniqlashda mustaqil fikr bildiradi bo'ladilar. Shuningdek, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblarida ijro etib, musiqaga ritmik jo'r bo'lish faoliyatlarini aniq bajara olish, qo'shiqlarni jozibali kuylay olish malakasiga ega bo'ladilar. Musiqiy asarlarni tahlil qilishda ham faol qatnashadilar. Musiqa san'ati - yosh avlodning kamololga yetishida nafosat tarbiyasining muhim omili. Bu jarayon maktabdan boshlab shakllanadi va yosh avlodning ichki dunyosini boyitish bilan birga butun hayoti mobaynida unga hamroh bo'ladi. Musiqiy nafosat tarbiyasining o'zagi esa, boshlang'ich sinflarda boshlanadi. Boshlang'ich sinflarda musiqa san'ati va madaniyati darslarini unumli o'tish va bolalarning mustahkam bilim olishlari uchun musiqa o'qituvchisining o'zi musiqa san'ati va madaniyati darslarida beriladigan barcha o'quv materiallarini puxta egallagan bo'lishi lozim.

Musiqa san'ati va madaniyati darslarida fortepiano cholg'u asbobi bilan birgalikda, o'zbek xalq cholg'u asboblarida musiqiy asarlarni ijro etish muhim

ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashib, dastur talablariga muvofiq dars o'tishi lozim.

Bugungi kunda musiqa san'ati va madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talablariga mos ravishda olib borish boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mazkur metodik qo'llanma «O'quvchi va o'qituvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisi» tamoyiliga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, 3-sinfda o'tilishi lozim bo'lgan 34 soat alohida darslarga ajratib chiqildi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talabiga muvofiq, o'quv-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash maqsadida dars ishlanmalari tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori «Musiqa san'ati va madaniyati» fanining o'qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

«Musiqa san'ati va madaniyati» o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, filor doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. «Musiqa san'ati va madaniyati» o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi, pedagogikasi va uning mukammal uslubiylatlari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta'lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonan-dalar) asarlarining elementar asoslarini o'rgatishni me'yorlashtiradi.

Musiqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosidagi yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalarini oshirish bilan birga, ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu bois, musiqa san'ati va madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh

avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilarga musiqa san'alini butun nafosati bilan o'rganishlari, ularda ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Shuningdek, o'quvchilarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqiy ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar jahon xalqlarining durdona asarlari bilan tanishtiriladi.

O'qitish jarayonini o'qituvchi bilan shug'ullanuvchilarning biror maqsadga qaratilgan, izchillik bilan o'zgarib turadigan o'zaro bog'langan faoliyati deb, qarash mumkin. Bu faoliyat davomida shug'ullanuvchilarning ma'lumot olish, rivojlanish va tarbiyalashtirish vazifalari hal etiladi.

Musiqa darsida o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. Musiqa darsida isitiznosiz barcha o'quvchilarning barcha faoliyati yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek o'quvchilarning orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab quvvatlaydi. O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Har bir musiqa darsi o'quvchilarni yangi bilimlar bilan boyitishi, ularning ong – bilim doiralarini kengaytirishi, musiqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishi yoki ilgari o'rganganlarni takomillashtirishi kerak. O'quvchilar darsdan-darsga go'yo pog'onadan – pog'onaga qo'yganidek bilishning cheki yo'q karvondan olg'a intilib boradilar.

“Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqa sohasidagi har tomonlama rivojlantirish naarda tutiladi, ularning musiqaviy madaniyatiga zamin yaratiladi.

Musiqa darsi musiqa ijodining quvonchini anglash tuyg'usini beradi, g'ozallikka daxldorlik tuyg'usini, kompozitoro yoki xalq musiqa asarlariga jo qilgan axloqiy – estetik mazmundan huzrlanish qobiliyatini shakllantiradi. Darsda ijodiy faoliyatning bir – biri bilan mustahkam bog'langan hamma turlari samarali bo'ladi.

Ayni vaqtda musiqa darsi o'zining mazmuni, metodlari va tashki etilishi bilan, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularda ilmiy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni, shaxsning ma'naviy sifatlarini shakllantirib katta tarbiyaviy qiymatga ega bo'lishi zarur.

Darsda o'quvchilarni tarbiyalash, oqitish, rivojlantirish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda va o'zaro aloqada amalga oshirilmog'i kerak. Bu musiqa pedagogikasining g'oyat muhim tamoillaridan biridir.

“Maktab o`quvchilari professional musiqa faoliyatiga tayyorlashni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymaydi. Biroq musiqani tushunish, uni idrok qilish va undan ta`sirlanish qobiliyati har bir o`quvchiga, u kelajakda professional musiqachi bo`ladimi yoki musiqa madaniyatining g`oyat xilma – xil shakllarida musiqiy – estetik faoliyatining asosiy bilimlariga, ko`nikma va malakalariga ega bo`lgan yaxshi tayyorlangan tinglovchi bo`lib qoladimi, bundan qat`iy nazar xos bo`lmog`i lozim.”

Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo`yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Musiqa darsi ta`lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalarining kompleks tarzda amalgam oshirilishini nazarda tutadi. O`quvchining shakllanishiga doir barcha jihatlariga ta`sir o`tkazadi; o`quvchining musiqiy bilimlarini oshirish bilan birga aqliy qudrati va qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashini, axloqiy, estetik, idoraviy fazilatlarini, mehnatga munosabatini shakllantiradi.

Dars o`tilishi shakliga ko`ra qat`iy bit tizim bo`yicha olib boriladi: muayyan bog`lanishdan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, musiqiy materialni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasi berishdan iborat. Musiqiy faoliyat turlari o`zaro bir-biri bilan bog`langan bo`lgan bir-birini to`ldirishi kerak.

3. Dars o`qitish tamoyillariga muvofiq bo`ladi: u tarbiyaviy ta`sir o`tkazadi, ilmiy tushuntirish uchun qulay hisoblanadi, musiqa asarlarining puxta va ongli tarzda o`zlashtirishiga, musiqaviy malaka va ko`nikmalarining shakllanishiga imkon beradi.

4. Dars mazmuni o`quv dasturiga muvofiq bo`lib, u boshqa darslar tuzumidagi bo`g`inlarni qamrab oladi. Ilgari qanday asar o`rganilganligi va maktab o`quvchilarni mazkur darsdan keyin nimalarni o`rganishlari zarurligini hamisha yodda tutish kerak.

Faqatgina yodda tutish va bilish emas, balki musiqa faoliyatlari davomida keyinchalik o`rganishlari lozim bo`lgan bazi asarlarni oldindan tanishtirib ketish yo`lini vujudga keltirishkerak.

5. Musiqa darslariga tayyorgarlik ko`rish va o`tish chog`ida yagi pedagogik texnologiya asosida o`qitish va tarbiyalash, zamonaviy psixologik – pedagogik va metododik yondashish hisobga olinadi.

O`qituvchi, shuningdek, maktabdagi aniq vaziyatni: musiqa darsiga doir jihozlarni, texnikaviy vositalarni, mahlliy uslublar va atabiiy shart sharoitlarni va boshqa narsalarni hisobga oladi.

Hozirgi musiqa darsi ishning xilma – xil shakllari va axborotga bolig bilanngina emas, balki texnikaviy jihatdan qurollanganligi bilan ham ajralib turadi.

Milliy istiqlool tufayli jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalari hisoblariga javob beradigan, fan – texnika yangiliklaridan habardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma`naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa, avvalo, pedagogika fanini, ta`lim tarbiya tuzilishini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida (1997-yil) ta'lim davlatimiz ijtimoiy hayotida, taraqqiyotida ustuvor soha deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga ma'suliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi.

Musiqqa darsining maqsadi ko'p jihatdan maktab o'quvchisining ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Musiqiy – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va boyitish musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilarning badiiy havaskorligi puxta o'ylangan va izchil tizim bo'yicha amalga oshirilg'i kerak.

Musiqqa darsining vazifasi bolalarni go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondashuvga o'rgatishdan iboratdir. Hozirgi zamon musiqa darsi xuddi anashu vazifani qanchalik faol va aniq maqsadni ko'zlagan holda hal etsa, maktab o'quvchilari faqat musiqaviy tarbiya berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Musiqiy – estetik tarbiya musiqa tarbiyasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Bu jarayonda musiqa darsi, muhim o'rin tutadi, lekin alohida o'rin tutmaydi. Musiqiy tarbiya musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san'at va atrof hayotdagi g'ozal narsalarga muhabbat tuyg'usini hamda o'z xis – tuyg'ularini musiqa tilida ijodiy namoyon qilish qobiliyatini shakllantirish katta ro'l o'ynaydi. Musiqiy tarbiya haqida uncha keng pedagogik mano bergan holda gapiriladigan bo'lsa, ta'lim tarbiya muassasalari tizimida amalga oshiriladigan butun o'quv – tarbiya jarayonini biron maqsadga muvofiq oldindan qo'yilgan holda tashkil etilishi tushuniladi. Biror maqsadga muvofiq oldindan qo'yilgan holda tashkil etilishi tushuniladi. Biror maqsadga qaratilgan, yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiyaning maqsadi, mehnat va ijtimoiy faoliyatiga hamda ona Vatanni doimo sevishtga tayyor bo'lgan, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirishdan iborat.

Musiqadagi go'zallikni faol idrok etish tafakkur faoliyatini talab qiladi. Musiqqa ijodida va idrokida intellektual asosini qaror toptirishdan hech qachon yuz o'girmaslik kerak. Musiqani tinglashda u yoki bu holatlarni his etib boshdan kechiribgina qolmasdan, balki idrok qilinayotgan materialni farqlaymiz, tanlaymiz, baholaymiz va fikr yuritamiz. Musiqqa idroki va didni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish doimo aqliy va axloqiy tarbiya bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Musiqiy idrok etish go'zallikni fahmlashdan ko'proq doirani qamrab oladi, go'zallikni fahmlash esa, o'z navbatida musiqiy idrok etishning turlaridan biridir. Hamma go'zal narsalarni musiqiy idrok etish mumkin, lekin hamma idrok etilgan narsalar go'zal bo'lavermaydi.

Go'zallikda voqeylikning ijobiy tomonlari o'z ifodasini topadi. Hayotiy voqea va hodisalarni musiqiy idrok etishimizda turli ruhiy kayfiyatlarga tushsak, go'zallikni fahm etganimizda esa faqat rohatlanamiz.

Shuningdek, haqiqiy musiqiy didga ega bo'lish mazkur shaxsning muhim fazilatlaridan biridir. Chunki didda u yoki bu kishining ruhiy olami namoyon bo'ladi.

Demak, sog'lom did uchun kurashish shaxning insoniy fazilati uchun qayg'urishi demakdir. Musiqiy didi barkamol bo'lgan o'quvchi faqat san'at durdonalarini tushunadigan bolagina emas, u hayot go'zalliklarini qaysi shaklida – tabiatdagi, odobdami, mehnatdagi yoki atrofdagi buyumlardami, nimalarda ko'rinasin uni qadrlaydigan bo'ladi. U barcha g'oyaviy va axloqiy tubanlikka zarba berishga tayyor turadi.

“Musika darsi o'ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarlarini tinglash va tahlil qilish, qo'shiq kuylash, musiqa ostida harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi bilan ajralib turadi. Dars jarayonida bu faoliyat turlarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan va ba'zan bir-biriga singib ketgan bo'ladi. Musiqani tinglash jarayonida o'quvchilar muayyan miqdorda musiqaviy – nazariy bilimlar oladilar, musiqa tinglash qobiliyati tajribasini to'playdilar, ularda ayni vaqtning o'zida tahlil qilish malakalari shakllanadi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytishda qo'shiqchilik ovozi hamda musiqa tinglash qobiliyatining barcha komponentlari (yuqori tovush, ritmika, tovushlar uyg'unligi, tembr) rivojlanadi. Har bir qo'shiq aytish, bolalar musiqa asboblarini chalish, musiqa ostida harakat qilish improvizatsiya (erkin ijod etish) jarayonida ijrochilik malakalarinign rivojlanishi o'quvchilarni o'quv mashg'ulotining faol, manfaatdor, emotsional qatnashchilariga aylantirib qo'ydi.”

Musika fanining vazifasi – bolalarni go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondashishga o'rgatishdan iboratdir. Bunga biror bir asarni o'zlashtirib tushinib olish asnosidagina emas, balki uning yaratilish tarixini, musiqa nazariyasining asoslarini, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish asosida erishish mumkin.

Biroq darsda o'quvchi faoliyatining barcha turlariga musiqani idrok qilish asos bo'ladi. Musiqani tushunish atrofdagi hayotni to'la to'kis idrok qilish uchun zarurdir, chunki pirovardida san'at asari va hayotdagi estetik narsaning mohiyatiga chuqur kirib borish qobiliyati maktab o'quvchisi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Musika darsi ham barcha fanlar qatori o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal qilmog'i kerak va bu vazifalarni qanchalik faol va aniq maqsadni ko'zlagan holda hal qilsa, maktab o'quvchilariga musiqaviy ta'lim berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ortiqov T. “Musika o'qitish metodikasi” T., “Muharrir”, 2010.
2. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T.,
3. Ishoq Rajabov. Maqomlar. T., 2006
4. M.Qodirov. O'zbek xalq tomosha san'ati, 1981;
5. Ibrohimov O. Maqom asoslari. O'quv qo'llanma. -Toshkent:. “ nashriyoti,
1. 2018
6. Beknazar Do'smurodov, Shavkat Matyoqubov. *Xalq Hofizlari*, 2011

7. D.Obidov “O‘zbek mumtoz musiqasining rivojlanish jarayonlari”
8. A.Xasanov. “Musika va estetik tarbiya” T., “O‘qituvchi” 1993 y
9. ”Buyuk siymolar, allomalar”. T-1995 y A. Qodiriy nomidagi xalqmerosi nashriyoti
10. “Bolalar musika va san`at maktablarining o`quv rejalari” T., 1996.